



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2025 yil “12”sentabr

02-26/21275-son

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari
rektorlariga

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) Parlamentlararo kengashidan olingan ma‘lumotga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasining V.P.Filatov nomidagi biomeditsina texnologiyalarini rivojlantirish Xalqaro jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tomonidan 2020-yildan boshlab, “Meditsina molodaya” ilmiy maktabi loyihasi amalga oshirilib kelmoqda.

2026-yilda Jamg‘arma tomonidan mazkur loyiha doirasida xalqaro miqyosdagi tanlov-konkursi e‘lon qilinib, MDH davlatlaridan yosh olimlarning ishtiroki bo‘yicha saralash sessiyalarini o‘tkazish rejalashtirilmoqda.

Konkurs g‘oliblari 2026-yil dekabrda Moskva shahrida o‘tkaziladigan “Meditsina molodaya” ilmiy forumida ishtirok etish uchun taklif qilinadi hamda ishtirokchilarning barcha xarajatlari Jamg‘arma tomonidan qoplanadi.

Shu munosabat bilan, yosh mutaxassislarni mazkur konkursda ishtirok etish masalasini ko‘rib chiqishingizni so‘raymiz.

Ilova: 5 v.

Vazirning birinchi
o‘rinbosari



A. Boboyev